

**TA'LIM MENEJMENTI VA KASBIY KOMPETENTLIK, ULARNING O'ZARO
BOG'LIQLIGI**

AYNAQULOV XUSNIDDIN ABDUXAMIDOVICH

Jizzax politexnika instituti "Muhandislik va kompyuter grafikasi"

kafedrasi katta o'qituvchi

Email abdukhamedov2708@gmail.com

Tel: +99897 521 56 50

XUDAYBERDIEV BOBIR BOTIROVICH

Jizzax politexnika instituti

"Muhandislik va kompyuter grafikasi"

kafedrasi assistenti

e-mail: bobirxudoyberdiyev03@gmail.com

Tel: 99 940-69-59

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lif muassasalari raxbar xodimlari va professor-o'qituvchilari kasbiy kopetentliligining mazmun-mohiyati, shuningdek, kasbiy kompetentliliginini baholash ko'rsatkichlari sifatidagi ko'rsatkichlar va mazkur ko'rsatkichlarga asosan OTM rahbar xodimlari va professor-o'qituvchilari kasbiy kompetentliliginini baholash mezonlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kasbiy kopetentlik, innovatsion texnologiyalar, ilmiy-metodik ta'minot, refleksiv ko'nikmalar, modernizatsiya, boshqaruv tamoyillari va usullari, kreativlikga moyillik.

Аннотация: В статье описаны содержание и сущность профессиональной компетентности руководителей и преподавателей вузов, а также индикаторы как индикаторы оценки профессиональной компетентности и критерии оценки профессиональной компетентности руководителей и преподавателей вузов на основе этих индикаторов.

Ключевые слова: профессиональная компетенция, инновационные технологии, научно-методическое обеспечение, рефлексивные навыки, модернизация, принципы и методы управления, креативность.

Abstract: The article describes the content and essence of the professional competence of heads and teachers of universities, as well as indicators as indicators for assessing professional competence and criteria for assessing the professional competence of managers and teachers of universities based on these indicators.

Key words: professional competence, innovative technologies, scientific and methodological support, reflexive skills, modernization, principles and methods of management, creativity.

O'z mohiyatiga ko'ra oliy ta'lif muassasalari rahbar xodimlari va professor-o'qituvchilarining **kasbiy kompetentliliqi** – bu ta'lif muassasasi faoliyatini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirishda innovasion yondashuvlarga asoslanadigan, kasbiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarga ega bo'lgan, yuqori darajada o'zini-o'zi nazorat qila oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo'lgan, shuningdek, shaxslararo munosabatlarda tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga oladigan hamda vaziyatlarga ko'ra turli xil muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanadigan, ta'lif jarayoni sub'ektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta'minlash, ta'lif muassasasi ilmiy-metodik ta'minotini yaxshilash, innovasion texnologiyalarni amaliyatga joriy etish orqali OTM faoliyatini takomillashtirish yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan mutaxassis shaxsini tafsiflaydi [3].



TIIAME
Tashkent Institute of International Affairs




LORACHEVSKY
UNIVERSITY



OTM rahbar xodimlari va professor-o'qituvchilarining boshqaruv faoliyati yo'nalishlari, boshqaruv faoliyati jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, ularga qo'yilayotgan talablar va kasbiy kompetentliligi yo'nalishlarida keltirilgan ma'lumotlarga asosan, ularda shakllanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka hamda kasbiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarni inobatga olgan holda OTM rahbar xodimlari va professor-o'qituvchilari kasbiy kompetentliligini baholash ko'rsatkichlari sifatida quyidagi ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Vatanni sevish, ona-yurtiga, ota-onasiga va yoru-do'stlariga sadoqatli bo'lish va e'tiqod qilish;
- mustaqil respublikamiz konstitutsiyasi va qonunlari, davlatimiz ramzlari, milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlargacha sodiqlik;
- OTM me'yoriy-huquqiy, me'yoriy-uslubiy hujjatlarni mukammal bilishi va o'z faoliyatida ularga amal qilish malakasiga ega bo'lishi;
- ta'lim muassasasini boshqarishga oid me'yoriy hujjatlar, boshqarish tamoyillari, usullari asosida ta'lim muassasasi ichki boshqaruv tizimini tashkil qilishni bilishi;
- OTM ishini ilmiy asosda rejalashtirish usullarini bilishi va amalda qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi;
- ta'lim muassasasini pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularni joy-joyiga qo'yish, ular bilan ishlash, ularga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish hamda rag'batlantirish yo'llarini bilishi;
- darslarni kuzatish va tahlil qilish qoidalarini bilishi;
- ta'lim muassasasi faoliyati monitoringini olib borishni bilishi;
- boshqaruvning demokratik va insonparvarlik tamoyillarini bilishi va ularga amal qilish malakasiga ega bo'lishi;
- rahbarga mos va xos yuksak madaniy saviya va ma'naviy qiyofa usullarini bilishi va egallashi;
- yangi pedagogik texnologiyalar, innovation texnologiyalar haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- ta'lim muassasasida tarbiyaviy ishlarning mazmun-mundarijasi, shakllari va bunday ishlarni tashkil qilish yo'llari va usullari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- ta'lim muassasasining muammolari, bu sohadagi izlanishlar, yangilik va yutuqlar haqidagi ma'lumotga ega bo'lishi;
- OTMni moliyalash, hisob-kitob yuritish, jihozlash, moddiy ta'minot masalalarini bilishi;
- byudjetdan tashqari mablag' kiritish va ulardan foydalanish yo'llarini bilishi;
- shaxslararo munosabatlarda faol va adolatli hamda muruvvatli habbatli bo'lishi;
- o'zligini anglash, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zini-o'zi boshqara olish va o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- shaxsiy manfaatlarini umummilliyl manfaatlar bilan uyg'un holda ko'ra olishi;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish jarayonlarida faol ishtirok etishi;
- mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni yangilash va modernizasiya qilish jarayonlarida faollik ko'rsatishi;
- milliy an'ana, urf-odatlar va qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yosh avlod qalbi va ongiga ona-yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirishga intilishi;
- o'z faoliyati va ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini tahlil qilish va ob'ektiv baholashga xizmat qiluvchi refleksiv ko'nikmalarga hamda tizimli fikrlash, keng dunyoqarash va refleksiv tafakkurga ega bo'lishi;

Lobachevsky
University

- tadqiqotchilik va tahliliy faoliyatga, ilg‘or tajribalarni o‘rganish, pedagogik mahoratni oshirish, mustaqil ta’lim olish va o‘zini-o‘zi rivojlantirishga, innovasion jarayonlarga va kreativlikga moyillik [1];
- oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, o‘zgalar muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishdaadolatlilik;
- o‘z faoliyati va o‘zaro munosabatlar jarayonidagi xatti-harakatlarining natijalarini oldindan ko‘ra olishi;
- boshqaruv jarayonlarida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatlarda sub’ektlar faolligini ta’minalash va faoliyatini muvofiqlashtira olishi;
- boshqaruv jarayonlarida mavjud sun’iy to‘sinq va qarama-qarshiliklar jamoadagi ongli intizomga salbiy ta’sir ko‘rsatishining oldini olishi;
- hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish va vaziyatlarga ko‘ra rahbarlik uslublaridan oqilona foydalanishi;
- axborotlar to‘plash, tahlil qilish, ob’ektiv baholash, qayta ishslash va axborotlar almashinish darajasi [2];
- ta’lim muassasasini boshqarishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etishi;
- boshqaruv funksiyalari, vositalari va metodlaridan oqilona foydalanishi;
- axborot texnologiyalari va kommunikasion vositalardan foydalanishi;
- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlanishlar hamda ularning natijalariga qiziqish va e’tiborli bo‘lish;
- tinchlik, mustaqillik, erkinlik va bag‘rikenglikning ahamiyati va zaruriyatini tushunib yetish;
- tarixni bilish va vaziyatlarga ko‘ra o‘tmishni va bugungi kundagi taraqqiyotni ob’ektiv baholash;

Mazkur ko‘rsatkichlarga asosan OTM rahbar xodimlari va professor-o‘qituvchilar kasbiy kompetentliligini baholash mezonlarini quyidagicha belgilash mumkin.


OTM rahbar xodimlari kasbiy kompetentliligini baholash mezonlari

1-jadval

OTM rahbar xodimlari kasbiy kompetentliliği komponentlari	Bilim ko‘lami	Ko‘nikma va malaka
Boshqaruvchilik	Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, ilmiy-metodik ishlar, me’yoriy hujjatlar bilan ishslash, faoliyatini muvofiqlashtirish	<ul style="list-style-type: none"> - blok-modulli, shaxsga yo‘naltiril gan ta’lim kabi yondashuvlarni joriy etish; - o‘quv seminarlari, konferensiylar va yozma ishlar tanlovini o‘tkazish; - ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish va targ‘ib qilish, pedagogik jarayon sub’ektlarining ehtiyojlari va imkoniyatlarini o‘rganish; - DTS talablari asosida bilim berish va ularning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari monitoringini olib borish; - pedagogik jarayon sub’ektlarining faoliyatları va o‘zaro munosabatlari ni muvofiqlashtirish hamda motiv lashtirish; - barcha komponentlardan foydalanish asosida axborotlar to‘plash;



Lobachevsky
UNIVERSITY



		<ul style="list-style-type: none"> - shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni vujudga keltirish; - kadrlar tanlash, ulardan foydala nish, personal faoliyatiga baho berish, lavozimlarga tayinlash, ish dan bo'shatish; - xarajatlar smetasini tuzish, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash, hisobotlar tayyorlash va tahlil qilish; - ijro intizomini ta'minlash.
Tadqiqotchilik	O'qituvchi va talabalarning tadqiqotchilik faoliyati, pedagogik jarayonlarning samaradorligini o'rganish	<ul style="list-style-type: none"> -o'qituvchi va talabalarini ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish; -talabalarini ilm olishga, ularning faolligini ta'minlashga, mustaqil o'rganishga, mustaqil ma'lumot olishga va o'zini-o'zi tarbiyalashga yo'naltiruvchi motivlar va vositalarni aniqlash.
Ijodkorlik	Ijodiy yondashuv, innovasion jarayonlarni tashkil etish, ijodiy ta'limiy muhitni shakllantirish	<ul style="list-style-type: none"> -belgilangan maqsadga erishish uchun eng qulay bo'lgan vositalarni aniqlash; - innovasion jarayonlarga o'qituvchi va talabalarning qiziqishini rivojlan tirish orqali ularning innovasion faoliyatini tashkil etish; -ijodkorlik yo'nalishidagi to'garak lar faoliyatini yo'lga qo'yish.
Kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlar	Fidoyilik, prinsipiallik, kommunikativlik, o'zini-o'zi boshqarish	<ul style="list-style-type: none"> -mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni yangilash va modernizasiya qilish jarayonlarida faoliik ko'rsatish. - ehtiroslarga berilmaslik; o'zini jamoa lideri sifatida ko'rsata olish; vaziyatlarga mos ravishda xodimlarning hissiyotga berilish holatlarini muvofiqlashtirish asosida ularda mehribonlik, qo'llab-quvvatlash, mehr-oqibat, o'zaro hurmat va ishonch tuyg'ularini shakllantirish. -muloqot jarayonida insoniy omillarga asoslanish. - rahbarlik rolini bajarish, o'zini tuta bilish. Maqsadga yo'naltirilgan innovasion faoliyatga, o'zligini isbotlashga, o'zini-o'zi rivojlantirishga ehtiyoj, shuningdek, boshqaruv ob'ekti barcha bo'g'inlarining o'zaro ta'siri natijasida moslashuvchan ta'limiy muhitni vujudga keltirish.

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlar OTM rahbar xodimlari kasbiy kompetentliligi boshqaruvchilik, tadqiqotchilik, ijodkorlik va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni o'z ichiga oluvchi o'zaro bog'liq bo'lgan komponentlar majmuidan iborat bo'lib, o'ziga xos murakkab ko'p komponentli tashkiliy tuzilishga ega ekanligini ifodalaydi.

OTM rahbar xodimlari va professor-o'qituvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar hamda bu jarayonni tashkil etuvchi komponentlar, OTM rahbar xodimlari kasbiy kompetentliligini baholash mezonnari sifatida xizmat qilishi bilan bir qatorda, ushbu boshqaruv faoliyati samaradorligi darajasini aniqlovchi omillar sifatida ham xizmat qilishi mumkin.



Muvaffaqiyatli inson faoliyati natijasida shaxs tomonidan erishilgan ma'naviy-axloqiy, psixologik va shaxsiy sifatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda faoliyat asosi, mazmuni, hatto yo'nalishi ham shaxsga xos sifatlar negizida belgilanib, uning natijasi uchun g'oyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayni o'rinda shaxsga xos sifatlarning turkumi, ularning ma'lum ijtimoiy faoliyatni tashkil etishdagi ahamiyati xususida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Usmonboeva M., Yuzlikaeva E., Djumaeva S. Pedagogik amaliyot: tizim mohiyati va mexanizmi / Metodik qo'llanma. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2011. – 88-b.
2. Fazilov J.K. O'zbekistonda mustaqillik sharoitida ta'lim muassasasidan tashqari ta'lim tizimini boshqarishning pedagogik asoslari: Ped.fanl.nomz. ... diss. – Toshkent: 2007. – 142 b.
3. Aynakulov M.A. Problems, prestiges of animation process and technique // Uz ACADEMIYA. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL.ISSN (E)-2181-1334.VOL 1, ISSUE 2, AUGUST 2020.
4. Igamberdiev D. X., Soatov Sh. A. "Vizual xotirani rivojlantirish jarayonida talabalarning fikrash faolligi" fizika, matematik va texnika fanlari axborot jamiyati rivojlanishining postindustrial poydevori sifatida. - 2020. - S. 26-29.
5. Sharipova Z.F. "Bo'lajak o'qituvchilarning umumiy texnologik vakolatlarini shakllantirish". Monografiya. Chelyabinsk, 2015 yil.



Lobachevsky
UNIVERSITY

